

Mavzu: Takrorlash

Aa *Vatansiz inson –
kuysiz bulbul.*



Bulbul – kichkina sayroqi qush, qadimdan uning yoqimli ovozi insonlarni hayratga solib, o'ziga maftun etib keladi. Bulbullarning xonishi yoqimli bo'lishiga qaramay, ko'inishi unchalik go'zal emas. Bulbullar juda tez uchishi bilan ham mashhur. Ularning uchish tezligi 50 km/h gacha yetadi.



1-mashq. Asosdosh so'zlarni toping va yozing.

Qadimgi vaqtlarda faqat og'zaki nutq bo'lgan. Keyinchalik, nutqni masofadan uzatish uchun zarurat paydo bo'lgach, odamlar rasm va chizmalarni ixtiro qilishgan. Rasmi yozuvlar shu tariqa paydo bo'lgan. Hozirgi kunda ham rasmi³ va rasmsiz, ya'ni yozuvli va yozuvsiz belgilar amalda qo'llaniladi. Siz ko'chalardagi yo'l belgilari va qoidalarni eslang. Shunda gap nima haqidaligini tushunib olasiz.



2-mashq. Yo'l haqidagi maqollarni o'qing va izohlang.

Yo'l bilmasang, yo'lchiga boq.

Yurardan avval yo'l axtar.

Hunar bilgan – och qolmas,
Yo'l tanigan – kech qolmas.

Yo'lda yurgan – yo'l tanir.
Cho'lda yurgan – cho'l tanir.

- Maqollardagi bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarni aniqlang.



3-mashq. O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga e'tibor bering.

Yo'l belgilari haqida ertak

Bir paytlar bir guruh yo'l belgilari bo'lgan ekan. Avvaliga ular ozchilikni tashkil qilishgani uchun hech kim ularga e'tibor bermas ekan. Vaqt o'tgani sari ular ko'payib borishibdi. Ba'zi belgilar doimo ba'zi narsani **ko'rsatishni** yoqtirishsa, boshqalari ba'zi vaziyatlarni **taqiqlashar**, yana bir xillari esa odamlarni xavf haqida **ogohlantirishar** ekan. Shunday qilib, belgilar guruhlarga bo'lingan holda, odamlarga yordam berishga, ularning hayotini osonlashtirishga qaror qilishibdi.

- Yo'l belgilari nechta guruhga bo'lingan ekan?
- Yo'l belgilarining foydali jihatlari haqida nimalarni bilasiz?



4-mashq. She'ni ifodali o'qing va ko'chiring. Turdosh otlarni aniqlang va belgilang.


Uch xil chiroq

Ko'cha bo'ylab yursang agar,
Atrofingga solgin nazar.
Chiroqlardan olgin saboq,
Yo'l ko'rsatar senga har choq.

Sariq chiroq hushyor etar,
O'tma yo'ldan shikast yetar.
Haydovchiga² to'xtab tur deb,
Qizil chiroq xitob etar.

Yashil chiroq porlagan kez
Yo'lni kesib o'tib ol tez.
Ko'chalar soz, obod-ravon,
Yo'lni bilgan yurar omon.

Po'lat Mo'min





5-mashq. Yo'l belgilariga qarang. Ular piyodalar va haydovchilarga nimani anglatishini yozing.

Namuna: "Diqqat bolalar!" yo'l belgisi haydovchilarni yo'lda bolalar chiqib qolishi mumkinligi haqida ogohlantiradi.



Diqqat,
bolalar!



Velosipedda harakatlanish
taqiqlanadi



Piyodalar o'tish
joyi

- Svetofoarning qaysi chirog'i yonganda yo'lni kesib o'tish mumkin?
- Siz yo'l qoidalariga har doim amal qilasizmi?



6-mashq. Ko'chiring. Ajratib ko'rsatilgan gapni gap bo'laklari, ajratib ko'rsatilgan so'zlarni esa so'z turkumlari bo'yicha tahlil qiling.

Yo'lda

Bugun **bobom** bilan birgalikda **metroda** sayr qilmoqchi bo'ldik. Bekatga **zamonaviy poyezd** kirib keldi, vagonga chiqib, qulay o'rindiqlarga **joylashdik**. Poyezd sekin **qo'zg'aldi** va uning tezligi tobora ortib bordi. Qaysidir manzilga yetganimizda **vagon** ichi birdan yorishib ketdi. Poyezd yer ostidan chiqib, keng va **mahobatli** yerusti ko'prigi uzra harakatlanar edi. Biz hayajon bilan vagon oynasidan atrofni tomosha qildik.

Oynadan poytaxtimizning keng va ravon yo'llari yaqqol ko'rindi. Yo'llar chetidagi turfa xil **manzarali** daraxtlar va ko'zni quvnatuvchi **gullar** atrofga o'zgacha **fayz**¹ bag'ishlab turardi.

Kundan kunga ona shahrimiz yanada obodonlashib, go'zallashib bormoqda. Bunday **go'zallikni** ko'rib, yuragimiz faxrga to'ldi.

